



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 28-yanvar, № 18 (9189)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



AHOLINING TINCH VA OSOYISHTA HAYOTI HAMDA MOL-MULKI DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH DOIMIIY E'TIBORDA BO'LADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27 yanvar kuni Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi huzuridagi qo'riqlash xizmati faoliyati bilan tanishdi.



Mamlakatimizda aholining tinch va osoyishta hayoti hamda mol-mulki daxlsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilib, ilg'or xorijiy tajriba asosida zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda. Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo'riqlash departamentiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri ham aynan shu sanaladi.

Davlatimiz rahbarining 2025 yildagi tegishli farmon va qarori ijrosi doirasida Qo'riqlash departamenti Milliy gvardiyadan ichki ishlar organlari tizimiga o'tkazildi.

Ushbu farmon va qarorda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida aniq rejalar ishlab chiqilib, tegishli choralar ko'rildi.

Texnik qo'riqlashni tashkil etish va aholiga texnik qo'riqlash xizmatlarini ko'rsatishning yangi tizimlari joriy etildi.

Xususan, ko'p qavatli uylarning yo'laklariga "tashvish" tugmalarini o'rnatish orqali qo'riqlash naryadlarining qamrovi ostidagi xonadonlarni soni keskin oshirildi, himoya orderi berilgan ayollarning xavfsizligini ta'minlash amaliyoti joriy etildi.

Obyekt va xonadonlarni qo'riqlovga olish ishlarida ichki ishlar organlarining tegishli xizmatlari bilan hamkorlik tizimi yo'lga qo'yildi.

Natijada qo'riqlanayotgan

obyektlarning soni yil davomida 99 foizga, qo'riqdagi xonadonlarning soni esa 118 foizga oshdi. Texnik qo'riqlash markazlarining soni 19 foizga, ularga xizmat ko'rsatuvchi tezkor harakatlanuvchi guruhlarining soni esa 15 foizga oshdi.

Davlatimiz rahbari xizmat binosi hovlisida xizmatda qo'llanilayotgan maxsus texnika vositalari, dronlar manyovri, jamoat tartibini saqlashga jalb etiladigan transport vositalarini ko'zdan kechirdi.

So'ng qo'riqlash texnika vositalarining ko'rgazmali taqdimoti bilan tanishildi. Bu yerda "Xavfsiz shahar" konsepsiyasini joriy etish va uni izchil rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida atroflicha axborot berildi.

Davlatimiz rahbarining 2023 yildagi tegishli qarori bilan belgilangan aniq mexanizmlar amaliyotga joriy etilishi natijasida respublika miqyosida "Xavfsiz shahar" konsepsiyasi bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. Ko'rgazma maydonchasida yuridik va jismoniy shaxslarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'rnatilgan videokuzatuv tizimlari hamda turli xil kameralarning real vaqtda ishlash jarayoni namoyish etildi, ularning texnik imkoniyatlari tushuntirildi va amaliy tavsiyalar berildi.

Taqdimot doirasida aylanma kameralar, yuz qiyofasidan shaxsni aniqlovchi kameralar hamda davlat raqam belgisini aniqlovchi kameralarning imkoniyatlari ko'rsatildi. Ushbu texnik vositalar mahallalar, jamoat joylari, obyektlar, ta'lim muassasalari, shuningdek, shahar va tumanlarning kirish-chiqish nuqtalariga o'rnatilmoqda.

Bugungi kunda barcha hududiy ichki ishlar boshqarmalarida sun'iy intellekt asosida hududlarni onlayn kuzatish, tezkor qidiruv ishlarini olib borish, kuch va vositalarni boshqarish hamda jinoyatlarni "issiq izidan" fosh etishga xizmat qiluvchi "Qalqon" axborot tizimi to'liq ishga tushirilgan.

Davlatimiz rahbari ichki ishlar va qo'riqlash xizmati ishlarini mahalladan boshlashi, xonadonlarning holatini o'rganib, ularning xavfsizligini ta'minlashi, tezkor qidiruv ishlarini olib borish, kuch va vositalarni boshqarish hamda jinoyatlarni "issiq izidan" fosh etishga xizmat qiluvchi "Qalqon" axborot tizimi to'liq ishga tushirilgan.

"Xavfsiz shahar" konsepsiyasi doirasida yagona platforma, 13 ta ma'lumotlarni qayta ishlash markazi, yagona elektron xarita, 42 ming 750 ta intellektual kamera hamda 17 ta yong'in xavfsizligi monitoringi tizimi

faoliyat yuritmoqda. Ushbu tizimlar konsepsiyaning asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi.

Joriy yilda ham vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda intellektual transport tizimlari, avtoturargohlarni boshqarish, ekologik va seysmologik monitoring, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda ogohlantirish tizimlarini joriy etish va integratsiyalash ishlarini davom ettirilayotgani ma'lum qilindi.

Huquqni muhofaza qiluvchi va davlat organlarining "Xavfsiz shahar" yagona platformasi texnik imkoniyatlaridan uyg'un foydalanishi natijasida bir necha yuz milliard so'm byudjet mablag'lari tejalayotgani qayd etildi. "Xavfsiz shahar" konsepsiyasini joriy etish bo'yicha O'zbekiston tajribasi xalqaro darajada ham katta qiziqish uyg'otmoqda.

Shu bilan birga, yaratilgan shart-sharoitlar natijasida ichki ishlar vazirligi Akademiyasida Raqamlashtirish departamenti uchun zamonaviy talablar asosida yangi bino qurilishi boshlangani ma'lum qilindi. Yil yakuniga qadar tarmoq qamrovini yanada kengaytirish, sun'iy intellekt asosida kamida to'rtta yangi tizimni platformaga ulash hamda raqamlashtirish darajasini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish rejalashtirilgan.

Prezidentimiz hozirgi kunda jinoyatchilik shakllari va omillari o'zgarayotgani, ammo ularga mos tizim va choralar yetarli emasligini qayd etdi. Ayniqsa, kibervavfsizlik yo'nalishida jinoyatlar ko'payib borayotgani va ushbu xavflarni bartaraf etish bo'yicha ishlar jadallashtirilmasa, aholi uchun jiddiy qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkinligini ta'kidladi.

Bu borada salohiyatli kadrlar yetishmasligi asosiy muammo ekani, bank va ichki ishlar organlari xodimlarining bilim va malakasini oshirish, ularni muntazam o'qitishga alohida e'tibor qaratish zarurligini bildirdi. Shuningdek, videokuzatuv tizimlarini joriy etishda ularni o'rnatadigan va samarali boshqaradigan mutaxassislarni tayyorlash, davriy o'quvlarni tashkil etish muhim ekanini ta'kidladi.

Shundan so'ng Toshkent shahrida tashkil etilgan "Xavfsiz ko'cha", "Xavfsiz yo'lak" hamda gastronomik yo'laklarda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bilan ham tanishildi.

Tashrif davomida qo'riqlash xizmati xodimlarini soha bo'yicha o'qitish jarayoni, profilaktika inspektorlari bilan o'tkazilayotgan amaliy mashg'ulotlar ko'zdan kechirildi.

Davlatimiz rahbariga Situatsion markaz faoliyati taqdimoti orqali xavfsizlikni

ta'minlashda zamonaviy boshqaruv va monitoring tizimlarining o'zni haqida ma'lumot berildi.

Situatsion markaz qo'riqlash xizmatining bo'linmalari harakatlarini nazorat qilish, monitoringini yuritish, tezkor va favqulodda vaziyatlarda qo'riqlash xizmati kuch vositalarini boshqarish, yo'naltirish va onlayn kuzatish maqsadida tashkil etilgan.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha namunaviy amaliyotni yaratish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi ham bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Toshkent shahri respublikaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy markazi sifatidagi o'rnini yanada mustahkamlaganini, bir so'z bilan aytganda, poytaxtda iqtisodiy rivojlanish darajasi sezilarli oshganini ta'kidladi.

Shu bilan birga, qayerda hayot yaxshilansa, daromad ko'paysa, o'sha yerda "yengil pul topish" harakatida bo'lgan jinoyit tuzilmalar ham faollashib, jinoyatning yangi usul va vositalari ham, eng avvalo, shu yerda paydo bo'ladi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI "ROSATOM" KORPORATSIYASI BOSH DIREKTORINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Rosatom" atom energiyasi bo'yicha davlat korporatsiyasi bosh direktori Aleksey Lixachyovni qabul qildi.

Mamlakatimizda integratsiyalashgan atom elektr stansiyasini qurish loyihasini ro'yobga chiqarishning amaliy jihatlarini, shuningdek, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish borasidagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

O'tgan yilning oktabr oyida birinchi kam quvvatli reaktor binosi uchun poydevor qo'yish ishlari boshlangani mamnuniyat bilan qayd etildi. Elektr stansiyasi loyihalashtirish ishlari davom etmoqda.

Bundan tashqari, o'tgan yili "MMFI"

milliy taqdiqot yadro universitetining Toshkentdagi filiali negizida atom energetikasi va yadro texnologiyalari bo'yicha ilg'or muhandislik maktabi ishga tushirildi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi va tibbiyotda yadro texnologiyalarini

qo'llash, sohada malakali kadrlarni tayyorlash, fanni rivojlantirish hamda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish borasida hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zA.

TURIZMNI RIVOJLANTIRISH – USTUVOR VAZIFA

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi majlisida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida xalqaro aloqalar, tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish hamda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Senat qo'mitasida

Unda davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasidan kelib chiqqan holda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida nazarda

tutilgan mamlakatimiz xalqaro imijini yanada oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, eksport hajmini ko'paytirish va turizmni rivojlantirish chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda tashqi siyosat konsepsiyasini takomillashtirish, yaxshi ko'ishchilik aloqalarini kengaytirish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash, xorijdagi vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizning

investitsiyalarni jalb qilish strategiyasi, milliy eksport geografiyasini diversifikatsiyalash, shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni yanada faollashtirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Bundan tashqari, turizmni rivojlantirish strategiyasi doirasida mamlakatimizning turistik salohiyatini xalqaro miqyosda targ'ib etish, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini

oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham muhokama etildi.

Senatorlar "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlashda parlament nazoratini kuchaytirish, davlat organlari hamda jamoatchilik tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash muhimligini ta'kidladi.

«Xalq so'zi».

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

INSON QADRI VA XALQIMIZ FAROVONLIGI ASOSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishga, davlat fuqarolik xizmati tizimini takomillashtirishga, ekologiya, atrof-muhit muhofazasi hamda tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarni tartibga solishga, bola huquqlarining kafolatlarini yanada kuchaytirish, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni himoyalashga, zargariy sanoatini yanada rivojlantirishga, xalqaro bitimni ratifikatsiya qilishga qaratilgan qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Voyaga yetmaganlar huquqlari – doimiy himoyada

Majlisda bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritilgan "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda muhokama qilindi.

Bu bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga bir qator qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda. Xususan, avtotransport vositasining bosib o'tgan masofasini ko'rsatuvchi odometr uskunasi ko'rsatkichlari o'zgartirilganligi

yoki uskunaning o'zi almashtirilganligini bila turib, avtotransport vositasini realizatsiya qilishdan oldin xaridorga bu haqda aytmaganlik uchun javobgarlik choralari belgilanyapti. Shuningdek, voyaga yetmaganlar ishtirokidagi ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha ishlarni ko'rishda pedagog yoki psixologning ishtiroki etishi talabi nazarda tutilmoqda. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish jarayonida voyaga yetmaganlar bilan bog'liq holatlarda pedagog va (yoki) psixolog ishtirokini ta'minlash ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) zimmasida bo'ladi.



INSON QADRI VA XALQIMIZ FAROVONLIGI ASOSI



Bundan tashqari, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs, jabrlanuvchi, advokat va qonuniy vakilga sudya yoki mansabdor shaxsning ishtirokini rad qilish huquqi, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishda ishtirok etishga monelik qiladigan holatlar belgilanmoqda.

Qonun loyihasida maxsus huquqdan mahrum etish jazosi bir yarim yilgacha muddatga tayinlangan bo'lsa, maxsus huquqdan mahrum qilish muddatini qisqartirish to'g'risida iltimosnoma kiritish imkoniyati jazo muddatining yarmi o'tgach, bir yarim yildan uch yilgacha muddatga tayinlangan bo'lsa, uchdan ikki qismi o'tgach taqdim etilishi o'z aksini topmoqda.

Shu bilan birga, maxsus huquqdan mahrum qilish muddatini qisqartirish huquqi qo'llanilmaydigan shaxslar toifasi ham belgilanmoqda. Ushbu qoidalarning joriy etilishi qonunchilikdagi noaniqliklar hamda korruptsiyaga sharoit yaratuvchi normalarning bartaraf qilinishiga imkoniyat yaratishi ta'kidlandi.

Shahnoza JOLDAISOVA, Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi a'zosi:

– Mazkur qonun loyihasi

iste'molchilar huquqlarining kafolatlarini ta'minlash, voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish, sud ishlarini ko'rishda ularni ruhiy va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan.



Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Davlat fuqarolik xizmati tizimida muhim yondashuv

“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tuzilmasi hamda davlat fuqarolik xizmati tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda ixcham, professional va samarali davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, davlat fuqarolik xizmatining huquqiy va tashkiliy asoslarini mustahkamlash, davlat xizmatchilari ishini natijadorlikka yo'naltirish borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat fuqarolik xizmati tizimi zamon talablariga mos ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Mazkur qonun loyihasida ham qator muhim normalar aks etmoqda. Xususan, bojxona, ichki ishlar,

prokuratura, Milliy gvardiya xodimlari va sudyalari Administratsiya rahbari farmoyishi bilan boshqa davlat organlariga yoki ularning tasarrufidagi tashkilotlarga boshqaruv xodimi lavozimlariga o'tganda, qonun hujjatlariga muvofiq, ularning kadrlar zaxirasiga kiritilishi mumkinligi yoki xizmat stajining hisobga olinishi bilan bog'liq normalar nazarda tutilyapti.

Shuningdek, davlat xizmatiga ilk bor qabul qilingan xodimlar bilan mehnat shartnomasi dastlab bir yil muddatga tuzilishi, “Davlat xizmatiga kirish” maxsus kurslarini va malaka oshirish o'quvlarini o'tashi hamda inson resurslarini boshqarishga oid ma'lumotlar va hujjatlar faqatgina “hrm.gov.uz” platformasida shakllantirilishi belgilanmoqda.

Mas'ul qo'mitaning ma'lum qilishicha, qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida u ishchi guruh a'zolari va deputatlar takliflari asosida takomillashtirilgan.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi choralar kuchaytiriladi

Deputatlar ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklarni tartibga solishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi o'qishda muhokama etdi.

Qonun loyihasi atrof-muhit muhofazasi yo'nalishidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish, xususan, daryolarning o'zanlarini tozalash va qirg'oqlarini mustahkamlash ishlarini amalga oshirish tartibini buzish, suv resurslarini ifloslantirish, daraxtlar va butalarni g'ayriqonuniy ravishda kesish yoki yo'q qilish, ularni muhofazalash choralarini ko'rmaslik, shuningdek, atmosfera havosini ifloslantirish bilan bog'liq holatlarga nisbatan javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi, “O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida”gi qonunlar hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Xususan, daryo o'zanlarida noruda materiallarni noqonuniy qazib olish, suv resurslarini ifloslantirish, daraxt va butalarni g'ayriqonuniy kesish yoki yo'q qilish, ifloslantiruvchi moddalarni belgilangan me'yoridan ortiq miqdorda atmosfera havosiga chiqarish, qurilish maydonlarida chang va qum zarrachalarining havoga ko'tarilishini bartaraf etmaslik hamda yoqish uchun mo'ljallangan joylarda yoki qurilmalarda yoqlig'i, moddalar va chiqindilarni yoqish holatlari uchun yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar joriy qilinishi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, issiqxonalarda, ishlab chiqarish binolarida yoki yondirish uskunalarida shinalar, bitum, mazut, plyonka, sintetik karton, rezina, jun tolası va shunga o'xshash zararli komponentlarni o'z ichiga olgan chiqindilarni yoqish ham ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Xayrullo G'AFFOROV, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi raisi:

– Qonun loyihasida sanoat va boshqa turdagi chiqindilarni to'plash, tashish, joylashtirish,

zararsizlantirish, saqlash, qayta ishlash, utilitatsiya yoki realizatsiya jarayonlarida tabiatni muhofaza qilish talablariga rioya etmaslik uchun ham moliyaviy sanksiyalar qo'llanishi nazarda tutilgan.



Majlisda qonun loyihasi yuzasidan bir qator aniqlashtiruvchi savollar berildi. Qonun tashabbuskorlarining javoblaridan so'ng ushbu hujjat deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Ayollar va bolalar manfaatları ustuvorligi – asosiy maqsad

Majlisda bola huquqlarining kafolatlarini yanada kuchaytirish, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda bolalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, bola huquqlarining himoyasini yanada kuchaytirish maqsadida amaldagi qonun hujjatlarida bolaga taalluqli har qanday masala hal etilayotganda bolaning eng ustun manfaatlari hisobga olinishini belgilash, zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarning huquqlari va manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilish asoslarini mustahkamlash zarurati yuzaga kelmokda.

Mazkur qonun loyihasi bilan ayrim qonun hujjatlariga bolaning ustun manfaatlari tushunchasini kiritish taklif etilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning tizimidagi tashkilotlarga tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanganlarning hamda ularning voyaga yetmagan bolalarining manfaatlarini ko'zlab sudlarga davlat boji to'lamasdan ariza, shikoyat va da'volar taqdim qilish, sud majlislarida qatnashish vakolatlarini berish nazarda tutilyapti. Bundan tashqari, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanganlar maxsus markazlarga joylashtirilganda ularga bir oygacha bo'lgan muddatga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasini berish ko'zda tutilmoqda.

Ziyodbek YUNUSOV, Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi a'zosi:

– Qonun loyihasining qabul qilinishi tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlagan xotin-qizlar hamda ularning voyaga yetmagan farzandlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga, bolalar huquqlari himoyasi sohasidagi milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirishga yo'l ochadi.



Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Mahalliy zargarlik sanoati rivojlanadi

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat yarimtayyor zargarlik buyumlarini O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Mamlakatimizda zargarlik sanoatini yanada rivojlantirish, respublikada ishlab chiqariladigan zargarlik buyumlarining tashqi bozorda raqobatbardoshligini ta'minlash hamda zargarlik buyumlari eksportini ko'paytirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Buning natijasida zargarlik sanoatida sezilarli o'sish kuzatilib, 2025 yilning o'zida sohada faoliyat olib boruvchi tadbirkorlar soni 2 700 nafardan ortdi. Eksport ko'rsatkichi esa 5,1 tonnaga yoki 439 mln. AQSh dollariga yetdi.

Ushbu qonun loyihasi bilan esa qimmatbaho metallardan yasalgan yarimtayyor zargarlik buyumlarini O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqishda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasining xulosasini olish nazarda tutilmoqda.

Majlisda qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash davomida mas'ul qo'mita tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgan, jumladan, deputatlar takliflari asosida loyiha tegishli o'zgartirishlar kiritilib, ayrim normalar amaldagi qonunchilik hujjatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirilgani aytildi.

Sapargul UTEMURATOVA, Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

– Qonun loyihasida nazarda tutilayotgan normalar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarning muomalada bo'lishi sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirish, mahalliy zargarlik sanoatini rivojlantirish hamda qonuniy faoliyat olib borayotgan mahalliy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.



Muhokamadan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Qonunchilik bazasi tizimlashtiriladi

Majlisda “Qonunchilik bazasi tizimlashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida”gi qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda normativ-huquqiy hujjatlardagi normalarning o'zaro bog'liqligi, tizimliliigi va uyg'unligini ta'minlash hamda ularidagi o'z ahamiyatini yo'qotgan normalarni kuchini yo'qotgan deb topish, mazmunan bir-birini takrorlovchi qoidalarni, kolliziya va huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish orqali ixcham va to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi

qonunchilik tizimini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur tizimli ishlarining mantiqiy davomi sifatida bugungi kunga qadar amalga saqlanib kelgan, biroq ahamiyati qolmagan bir qator qonunlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish qonun loyihasida taklif etilmoqda.

Mazkur loyiha qonunchilik bazasini ixchamlashtirishga, fuqarolar va tadbirkorlar uchun normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanishni qulaylashtirishga qaratilgan.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Xalqaro Bitim ratifikatsiya qilnadi

Majlisda “O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Iordaniya Hoshimiylar Podshohlighi Hukumati o'rtasida ushlab berish to'g'risidagi Bitimni (Samarqand, 2025 yil 26 avgust) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Aytilganidek, so'nggi yillarda O'zbekiston va Iordaniya o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat va konstruktiv muloqot tamoyillariga asoslanib, xalqaro hamda mintaqaviy masalalar yuzasidan yaqin hamkorlikni izchil rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, bugungi kunda terrorizm, ekstremizm, iqtisodiy jinoyatlar va uyushgan jinoyatchilikning turli ko'rinishlaridan kelib chiqadigan xavf-xatarlarning ortib borayotgani davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va mazkur sohada huquqiy asoslarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda davlatlararo huquqiy yordamni yo'lga qo'yish va uni tizimli ravishda amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bu borada hozirgi kunga qadar O'zbekiston Respublikasi bilan Iordaniya Hoshimiylar Podshohlighi o'rtasida ushlab berish masalalari bo'yicha shartnomaviy-huquqiy asos mavjud emas. Bu esa ikki tomonlama hamkorlik imkoniyatlarini muayyan darajada cheklab kelgan.

Mazkur Bitim muqaddima hamda 23 ta moddadan iborat. Unda jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoyi javobgarlikka tortish yoki ularga nisbatan chiqarilgan hukmni ijro qilish maqsadida ushlab berishning tartibi, asoslari va shartlari belgilab qo'yilgan.

Dilbar MAMAJONOVA, Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi a'zosi:

– Bitimning kuchga kirishi natijasida O'zbekiston va Iordaniya Hoshimiylar Podshohlighi huquqni muhofaza etuvchi organlari o'rtasida jinoyat ishlarini tergov qilish va sudga ko'rib chiqish samaradorligi oshadi. Shuningdek, jinoyat sodir etgan shaxslarning jazodan qochib qutulishiga yo'l qo'yimaslik, ya'ni javobgarlikning muqarrarlighi prinsipini ta'minlashga xizmat qiladi.



Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan uchinchi o'qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Matbuot xizmati.

TINCHLIKPARVAR SIYOSAT E'TIROFI

Bugun dunyo siyosati tobora murakkablashib, qurolli mojarolar, geosiyosiy qarama-qarshiliklar va insonparvarlik inqirozlari xalqaro barqarorlikka jiddiy tahdid solmoqda. Bunday vaziyatda tinchlik shunchaki shior emas, balki siyosiy yetuklik, diplomatik mas'uliyat hamda axloqiy pozitsiyani talab etuvchi muhim tanlovga aylanmoqda.

Aks sado

Har bir davlat ham bu jarayonda faol va ishonchli ishtirokchi bo'lolmaydi. Shu ma'noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tinchlik tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi O'zbekiston tashqi siyosatida sifat jihatdan yangi bosqich boshlanganining namoyonidir.

Xususan, Prezidentimiz nomiga AQSh Prezidenti Donald Trump tomonidan Yaqin Sharqda tinchlikni mustahkamlash hamda mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal etishga qaratilgan xalqaro tashabbusga qo'shilish bo'yicha rasmiy taklif yo'llanishi bejiz emas.

Bu Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro maydonda e'tirof etilayotganidan dalolat. Qolaversa, O'zbekiston murakkab va ziddiyatli mintaqalarda ham xolis, murosaga moyil va tinchlikparvar davlat sifatida qabul qilinmoqda.

Tinchlik kengashiga O'zbekistonning a'zo bo'lishi, xususan, ta'sischi davlatlar safida ishtirok etishi xalqaro munosabatlar tizimida muhim siyosiy voqeya sifatida baholanmoqda. Dastlab G'azo sektorida tinchlikni ta'minlash va tiklanish jarayonlarini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan ushbu tashabbus istiqbolda global

mojarolarni tartibga solishga da'vogarlik qiluvchi yangi xalqaro platformaga aylanishi mumkin. Bu esa O'zbekiston zimmasiga yuksak geosiyosiy mas'uliyat ham yuklaydi. Va mazkur jarayonda ishtirok mamlakatimizning xalqaro muammolarga befarq emasligini,

Tinchlik kengashidagi ishtirok O'zbekistonga xalqaro muzokaralarda vositachi, murosaga chorlovchi va insonparvarlik tamoyillarini himoya qiluvchi tomon sifatida chiqish imkonini beradi. Bu mamlakatning diplomatik salohiyatini yanada mustahkamlashi bilan ahamiyatlidir.

global tinchlik hamda barqarorlik uchun faol javobgarlikni o'z zimmasiga olishga tayyor ekanini anglatadi. O'z navbatida, Tinchlik kengashidagi ishtirok O'zbekistonga xalqaro muzokaralarda vositachi, murosaga chorlovchi va insonparvarlik tamoyillarini himoya qiluvchi tomon sifatida chiqish imkonini beradi. Bu mamlakatning diplomatik salohiyatini yanada mustahkamlashi bilan ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, mazkur a'zolik O'zbekistonning “yumshoq kuch” imkoniyatlarini sezilarli darajada

kengaytiradi. Diplomatik muloqot, vositachilik tajribasi, madaniyatlarning tushunishini rivojlantirish hamda tinchlikparvar tashabbuslarni ilgari surish orqali O'zbekiston xalqaro maydonda ma'naviy-siyosiy ta'sirini kengaytirib bormoqda. A'zolikning vaqtinchalik va bepul asosda amalga oshirilishi esa mamlakatning mustaqil hamda xolis pozitsiyasini saqlashiga, iqtisodiy majburiyatlarsiz siyosiy ta'sir ko'rsatishiga imkon yaratadi. Kengash doirasida har bir davlatning teng ovoza egaligi adolat va tenglik tamoyillarining muhim ifodasidir.

Tinchlik kengashining kelajakda “United Nations” tizimiga nisbatan

muqobil tuzilma sifatida shakllanish ehtimoli ham mavjud. Bu holat O'zbekiston oldiga murakkab diplomatik vazifalarni qo'yadi. Bir tomondan, an'anaviy xalqaro institutlar bilan samarali hamkorlikni davom ettirish, ikkinchi tomondan esa yangi tashabbuslarda faol qatnashish orqali milliy manfaatlarini himoya qilish zarur bo'ladi. O'zbekistonning ko'p vektorli tashqi siyosati aynan shunday muvozanatli hamda pragmatik yondashuvga asoslanadi.

Aslida ham, so'nggi yillarda

O'zbekiston xalqaro maydonda tubdan yangilangan, devorlar emas, ko'priklar qurayotgan, faol va mas'ul tashqi siyosat yuritayotgan davlat sifatida shakllandi. Markaziy Osiyodagi ishonch va hamkorlik muhitining tiklanishi mamlakat diplomatiyasining eng muhim yutuqlaridan biridir. Qo'shni davlatlar bilan ochiq hamda konstruktiv muloqot mintaqani raqobat emas, balki hamkorlik hududiga aylantirdi.

Farg'ona davlat universitetida o'tkazilgan “Farg'ona tinchlik forumi” Markaziy Osiyoning barqarorlik va hamkorlik makoni sifatidagi o'rnini mustahkamlashga hissa qo'shdi, desak, mubolag'a emas. Forumda ilgari surilgan o'yalar mintaqaviy muammolarga jamoaviy yondashuv, qo'shniçilik munosabatlarini chuqurlashtirish hamda ishonch muhitini kengaytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bu esa O'zbekistonning mintaqaviy diplomatiyada yetakchi va birlashtiruvchi rolini yana bir bor namoyon etdi.

O'zbekistonning Tinchlik kengashiga a'zoligi mamlakatimizning xalqaro maydondagi mavqeyi mustahkamlanib borayotganining yaqqol ifodasi bo'ldi. Bugun O'zbekiston passiv kuzatuvchi emas, balki global siyosiy jarayonlarda o'z pozitsiyasi, mas'uliyati hamda tashabbuslari bilan qatnashayotgan tinchlikparvar davlat sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu a'zolik Yangi O'zbekistonning jahon siyosatida adolat, muloqot hamda barqarorlikni targ'ib qiluvchi ishonchli hamkor sifatidagi tarixiy rolini yanada kuchaytiradi.

Bahodirjon
SHERMUHAMMADOV,
Farg'ona davlat universiteti
rektori, professor.

2026 yil 1 oktabrdan qon bilan ishlash xizmati tashkilotlarida «ehtiyoj – qayta ishlash – yetkazish» zanjiri doirasida biznes jarayonlarini boshqarish tizimi joriy etiladi.



MAMLAKAT BO'YLAB YANGILIKLAR, VOQEALAR, TAFSILOTLAR



Ekologiya

– Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Orol dengizining qurigan tubida ekologik barqarorlikni ta'minlash va aholi hayotini yaxshilash ustuvor maqsad sifatida belgilangan, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi ekologiya vaziri Leyli Seytova. – Joriy mavsumda ham ekologik holatni yaxshilashga qaratilgan ishlar to'xtovsiz davom etmoqda. Qo'shimcha 100 ming gektar maydonda saksovil va boshqa chidamli o'simliklar ekilayotir. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda Mo'ynoq tumanida yangi innovatsion loyihalar yo'lga qo'yildi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi nafaqat tabiatni tiklaydi, balki

ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Yangi ish o'rinlari yaratilib, mahalliy ko'chat yetishtirish tarmoqlari rivojlanmoqda. Mahalla va shaharlarda, ko'p qavatli uylar atrofi, yo'llar bo'yi hamda korxona va tashkilotlar hududida daraxt va saksovil ekilmoqda, ijtimoiy obyektlarga esa ko'chatlar bepul yetkazib berilib, aholiga tarqatilmoqda. Xalqaro ahamiyatga ega “A-380” avtomobil yo'li bo'yida ham ko'kalamzorlashtirish ishlari davom etyapti. Saksovil, sho'r hamda qurg'oqchilikka chidamli ekinlar urug'i sepilmoqda. Bu ishlar qum ko'chishini to'sadi, ekologik

Bir paytlar qumga aylangan Orol dengizi tubida bugun saksovil va boshqa o'simliklar ildiz otyapti. Keng ko'lamli ko'kalamzorlashtirish ishlari butun mintaqaning ekologik barqarorligi uchun umid uyg'otmoqda. 2025 yilga kelib barpo etilgan “yashil

qoplamalar” maydoni qariyb 2 million gektarga yetdi. Orolqumdan ko'tarilayotgan zaharli tuz va chang zarralari bilan kurashish uchun boshlangan loyihalar himoya o'rmonlariga aylanib, qum ko'chishini to'sib, atrof-muhitni asrab qolmoqda.

«YASHIL QALQON»NING QUDRATLI KUCHI

barqarorlikni ta'minlaydi va atrof-muhitni obodonlashtirib, aholi hayotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

– Kollektorlar bo'yiga ham turli daraxt ko'chatlari ekilmoqda, – deydi Qoraqalpog'iston Qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti o'qituvchisi Aziz Qunnazarov. – Shu paytgacha Xo'jaylidan Qo'ng'irotgacha bo'lgan avtomagistral bo'yi kollektorlariga jami 33 280 tup jiyda ko'chati ekildi. Bundan tashqari, hudud iqlimiga mos turlar tanlandi. Cho'lga chidamli o'simliklar orqali esa kutilgan natijaga erishish mumkin.

Manbalarga ko'ra, jiyda tarkibida inson salomatligi uchun o'ta muhim bo'lgan ko'plab mikro va makroelementlar, shuningdek, qator vitaminlar mavjud. Shu bois jiyda xalq tabobatida va sog'lom ovqatlanish tizimida alohida qadrlanadi. Dunyoning qator mamlakatlarida jiydadan farmatsevtikada dori-

darmon, to'qimachilik sanoati uchun yelim, o'simlik gulidan esa atir, yog'ochidan qattiq bo'lgani uchun qurilish materiallari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Juda issiq va sovuq ob-havoga chidamli bu o'simlikni yurtimizning cho'l, qumli, shuningdek, yangi o'zlashtirilgan yerlarida ekib, kutilgan natijaga erishish mumkin.

Olimlarning ta'kidlashicha, Orolbo'yining sho'r va qumli maydonlarida saksovil ekish – ekologik muvozanat garovi. Negaki, saksovil o'simligi suvsizlikka va sho'rga chidamli bo'lib, bir tup saksovil 4-5 yilda 10 tonnagacha qumni ko'chishdan to'xtatib qolish xususiyatiga ega. 1 gektar yerdagi saksovilzor esa yiliga 1135 kg. karbonat angidrid yutib, 835 kg. kislorod ajratib chiqaradi.

Toza muhit, sog'lom hayot va barqaror taraqqiyot – bugungi va ertangi avlodlar uchun eng katta ne'mat. Shu bois mazkur

tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish maqsadida ko'chatxonalarida manzarali va mevali daraxt ko'chatlari yetishtirilmoqda. Sug'orish tizimlari yangilanmoqda, mahalliy iqlimga mos ko'chatlar yetishtirilayotgan pitomniklar soni ortmoqda, yo'llar bo'yilab ko'kalamzor hududlar barpo qilinmoqda. Xususan, Nukus – Qo'ng'iro't, Nukus –Taxtako'pir yo'nalishlaridagi qariyb 200 kilometr masofada ko'chatlar ekilib, yo'l atroflari ham yashil qiyofa kasb etdi.

Orol tubida yashil o'rmonlangan paydo bo'lishi mintaqadagi bioxilmaxillikni qayta tiklash va mahalliy aholi salomatligini muhofaza qilishda eng to'g'ri va samarali yo'ldir. “Yashil qalqon”ning qudratli kuchi yaqin yillarda Orolbo'yi mintaqasi qiyofasini butunlay o'zgartirishi shubhasiz.

G'ayrat OTAJONOV
(«Xalq so'zi»).

Hayot zavqi

GAPIRADIGAN TO'TINING NARXI QANCHA?

To'tilar mavjud qushlarning eng qadimiyalaridan hisoblanadi. Hozirgi paytda ularning 600 dan ziyod turlari bor, ular yashaydigan mintaqaga esa tropik hududlarga to'g'ri keladi. Asosan, Janubiy Osiyo, Janubiy Amerika, Shimoliy Afrika mamlakatlari va Avstraliyada keng tarqalgan.



Odamlar to'tining gapirishiga mahliyo bo'lishadi: axir, bu o'ziga xos ermak-da! Namanganlik qush ishqibozi Musoxon Egamberdiyev xonadonida ham shunday parranda parvarishlanadi. Asli vatani Janubiy Amerika bo'lgan “Alexandrine” to'tisi “salom”, “qalaysiz”, “xo'jayin” singari uncha murakkab bo'lmagan qator so'zlarni o'ziga xos talaffuzda takrorlaydi. “Bir yigitga qirq hunar oz”, deydi dono xalqimiz. Viloyat markazida joylashgan 43-umumta'lim maktabida jismoniy tarbiyadan saboq berib kelayotgan bu inson o'zi qiziqqan yana bir soha – qushchilikni xonadon biznesiga ham aylantirgan. Uning ikki sotixli maxsus yopiq joyida mingdan ortiq qushlar bor.

– Bu ishini o'g'lim Ulug'bek bilan birga olib boramiz, – deydi M. Egamberdiyev. – Aslida qushlar parvarishi ancha nozik yumush. Lekin ularning chug'ur-chug'uri, ayniqsa, gapirishga moyil to'tilarning so'zlaridan kishi o'zgacha zavq oladi.

Noyob parrandalarga mehr qo'ygan muallim ekzotik jonivorlar turini vaqti-vaqti bilan yangilab turadi. Yaqinda uning gapiradigan to'tilaridan biri bozorda 1500 AQSh dollariga baholandi.

Qudratilla NAJMIDDINOV
(«Xalq so'zi»).

TOMORQADAN KATTA DAROMAD OLMOQCHIMISIZ?

Buxorolik mirishkorlar tajribasini o'rganing

Qodir Ro'ziyev 77 yoshda. Ammo qo'ni-qo'shnilar uni shu paytga qadar cho'yxonada oyoq uzatib o'tirganini ko'rmagan. Suhbatlashganda ham gapni qisqacha qiladi. Bekorchi odamni jini suymaydi. Ayniqsa, hovlisini guldek yashnatmagan, nuqul turmushidan noliqan kishini ko'rib qolsa, jig'ibiyroni chiqadi. Bundaylarga tanbeh beradi. Suyagi dalada qotgan bu insonning tomorqaga, ona tabiatga mehri baland.

Omilkorlik

– Iqlim o'zgarishi ortidan ekologik muammolar ko'paymoqda, – deydi Olot tumanidagi Denov mahallasida yashovchi Qodir ota. – Har bir daraxt, har bir butaning qadri-qimmatini bilinyapti. Tomorqamizda manzarali daraxt ko'chatlari yetishtirishni yo'lga qo'ydik. “Hayt degan tuyaga madad”, deganlaridek yurtimiz bo'ylab keng quloq yoygan “Yashil makon” umummilliy loyihasiga, harna bo'lsa-da, hissam qo'shilish.

Joriy mavsumda otaxon 20 ming tupdan ziyod “Kaliforniya” teragi, 200 – 300 tup atrofidagi qora qarag'ay, archa ko'chatlarini yetishtirdi.



Tomorqada, shuningdek, tog'oldi hududlardan keltirilgan kamyoib archa ko'chatlarini ham ko'rish mumkin. Qodir ota shu ish ortidan tuzukkina daromad ham topyapti.

– Daraxt kislorod ishlab chiqaradi, tuproqni mustahkam ushlaydi, – davom etadi u. – Bizning mahalliy sharoitida bu juda muhim. Daraxt soyasi saratonda jonning rohati. Shu bois ham uyi oldidagi ariq bo'yiga, bo'sh yotgan hayotdoy tomorqasiga mevali yoki manzarali daraxt ko'chati o'tqazmagan ayrim boqibeg'amlarni ko'rganimda xunob bo'ldim.

Kuzatishlar ko'rsatyaptiki, moddiy ko'mak so'rab mahalla idorasi ostonasini bosib o'tganlar orasida tomorqasidan tuzuk foydalanmayotgan, “Oima pish, og'zimga tush” qabilida

yashayotganlar ham oz emas. Boqimandalikning turgan-bitgani oilaga, jamiyatga ziyon. Bundaylar nafaqat Qodir ota, balki Vobkent tumanining Changaron qishlog'ida yashovchi Jo'rabek Hayitovdan ham ibrat olsa arziydi.

– Dastlab kichik bir issiqxona barpo etib, qishda sabzavot mahsulotlari yetishtirishni yo'lga

qo'ydim, – deydi yosh oila sobibi.

– Shu ishning hadisini olgach, issiqxonani yana bittaga ko'paytirdi. Sitrus mevalar, jumladan, limon yetishtirishga kirishdik.

Jo'rabek ham Qodir aka kabi yerga mehr qo'ygan. Uning har qarichini qadrlaydi. Ekin ekish oldidan chuvalchanglar vositasida biogumus hosil qilib, tuproq hosildorligini oshirishga zamin hozirlaydi. 6 sotixli issiqxonasida 2 ming tup bul'or qalampirining sara navi ko'chatidan o'tqazgandi. Bozorga chiqarilsa, xaridor ko'zini ham, ko'nglini ham uza olmaydigan qalampir shunangig hosil berdiki, asti qo'yasiz.

Aytmoqchi, Jo'rabekning bozorga tushishiga hojat yo'qi. Tayyor hosilni issiqxonaning o'zidan olib ketishyapti. Birgina qalampirning o'zi oilaga 25

million so'm daromad keltirmoqda. Shig'ili hosil tugadigan 30 tup limon, ikkinchi issiqxonada yetishtirilayotgan ertagi kartoshka hosilini ham pulga chaqsangiz, mirishkor yosh dehqonga “Otanggga balli” deyishingiz tayin.

– Davlatimiz ko'malasin! – deydi J. Hayitov. – Yer bilan tillashib ishlash maqsadini o'z oldiga qo'ygan kishi borki, qo'llab-quvvatlanmoqda. “Mahalla yetilgisi” o'y-tashvishlarimizni yengillashtiryapti. Turli imtiyozlar berilmoqda. Ehtiyojmandlarga ekin yerlari ajratilyapti. Bu imkoniyatlardan oqilona foydalangan kishi hyech narsaga zoriqib qolmaydi.

Haq gap. Birgina Vobkent misolida olib qaralsa, tumandagi 22 ta mahallada mavjud tomorqa xo'jaligi u yoki bu mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtirilmoqda. “Bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan bu ish natijasida sabzavotchilik, kartoshkachilik, polizchilik va hatto anoru anjirchilik yo'nalishlarida ishlab bozorni to'kin etayotgan dehqonlar bog'bonlar sulolasi shakllanyapti. Haqiqiy xazina sanalgan yerni qarovsiz qoldirmaslik, tomorqani qishin-yozin “ishlatish” chekka qishloqlardagi kambag'allik degan dardga eng yaxshi malhamdir.

Istam IBROHIMOV
(«Xalq so'zi»).



KO'PKARI = MARDLAR BELLASHUVI, SOVRIN TALASHISH MUSOBAQASI EMAS

ko'pkarilarda har bir sovrin uchun qo'sha-qo'sha avtomobil, juda katta miqdordagi pul va boshqa moddiy qiymatliklar qo'yilishi odatiy holga aylanib bormoqda.

Masalan, shu yil 4 yanvar kuni Yakkabog' tumanining Serob qishlog'ida yashovchi bir oila tomonidan farzandlarining sunnat to'yi munosabati bilan tashkil etilgan ko'pkarida aytilgan sovrinlarga e'tibor qarating: 7 ta avtomobil (“Captiva”, “Gentra”, “LADA Kalina” hamda to'rtta “Damas”), 13 ta tuya, 27 ta ot, shuningdek, katta miqdordagi pul va boshqa qimmatbaho buyumlar.

Albatta, birovning cho'ntagini titish fikridan yiroqiz. O'zi to'plagan mulkni qanday tasarruf etishi to'yi egasining ixtiyorida. Lekin bu kabi dabbababozliklarning avj olib borayotgani, ayrim fuqarolar esa ana shunday kimo'zarlik ortidan quvib, qarzga botayotgani, boshi berk ko'chaga kirib qolayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Biz mahalla faollari bilan ham shu xususda suhbatlashdik. Ularning aytishicha, mahallada to'ylarni ixchamlashtirish, ortiqcha isrofgarchiliklarning oldini olish borasidagi

targ'ibot tadbirlari doimiy ravishda o'tkazib kelinadi. Tushuntirish ishlari olib borilmoqda. To'y qilish oila esa ko'pkari musobaqasini tashkil etish, unda xavfsizlikni ta'minlash uchun ichki ishlar bo'limidan ruxsat oladi. Tegishli to'lovlarni amalga oshiradi.

– Ko'pkari, avvalo, halollikni, mardlikni targ'ib qiladigan o'yin, – deydi ko'kdalalik faxriy polvon Baxtiyor Safarov. – Uning dovruqi, chiroyi aytiladigan sovrinning ko'pligi bilan o'chanmaydi. Halol o'yin bo'lsa, intilgan, harakat qilgan polvon mehnatiga, iqtidoriga yarasha haqini ayirib olsa, ko'pkarining



«VELOSIPED HAYDAB, SAKSON YOSHGA KIRDIM»

Har qanday jismoniy harakat salomatlikning mustahkam garovidir. Xususan, yurish, yugurish, suzish kabi mashg'ulotlar inson organizmi uchun beqiyos foyda keltiradi. Shu qatorida velosipedda harakatlanish ham sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki velosipedda yurish jarayonida inson tanasidagi deyarli barcha mushaklar faollashib, yurak-qon tomir tizimi mustahkamlanadi, nafas olish faoliyati yaxshilanadi. Natijada inson o'zini tetik his etadi, hayotiy faolligi ortadi va yosh ko'rinishini saqlab qoladi.

Ofarin!

Buni Baliqchi tumanidagi Jasorat mahallasida yashovchi, 80 yoshdan oshgan Nodiraxon Imomova hayot tarzi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Nodiraxon ona istiqomat qiladigan ushbu hudud bejiz “Velosipedchilar mahallasi”, deb atalmaydi. Sababi, bu yerda velosipedda yurish ko'plab xotin-qizlar uchun oddiy kundalik odat, hatto hayot tarzining ajralmas qismiga aylangan.

– Esimni tanigandan beri velosiped haydayman, – deydi Nodiraxon Imomova. – Maktabga ham, ishga ham, qarindoshlarimkiga ham doim velosipedda boraman. Bu mahallamiz xotin-qizlari uchun turmush tarzi. Mahallada to'y-ma'raka bo'lsa, darrov velosipedga savatimizni qo'yib, “lip” etib yetib boramiz. Bozor-o'charmi, dala yumushlarimi – farqi yo'q. Ham ish bitadi, ham sport bilan shug'ullanamiz.

Nodiraxon ona boshqalardan farqli ravishda velosipedda yurishni shunchaki harakat sifatida emas, balki sport mashg'uloti deb biladi. Shu bois bu ishga mas'uliyat bilan yondashadi. Har tong mahalladagi yigirmadan ortiq xotin-qizlar bir joyga to'planib, belgilangan masofani velosipedda bosib o'tishni odat qilgan. Ular uchun yil fasli yoki ob-havo o'zgarishi to'siq emas. Qishning qahratoni yoki yozning jazirasiga qaramay, sog'lom turmush tarziga intilish ularni birlashtirib turadi. Guruh a'zolari orasida 30 yoshlilar ham, 80

yoshga kirgan onaxonlar ham borligi bu mashg'ulotning har qanday yoshda foydali ekanidan dalolat.

– Jismoniy harakat eng arzon, oson va samarali davo hisoblanadi, – deydi oliy toifali shifokor Jamoliddin Karimov. – Ayniqsa, velosiped minish yurak-qon tomir tizimini mustahkamlab, qon bosimini me'yorda ushlab turadi, xolesterin miqdorini kamaytiradi. Ortiqcha vaznga qarshi kurashda ham juda samarali. Suyak va bo'g'imlarni mustahkamlab, og'riqlarni kamaytiradi. Eng muhimi, muntazam harakat insonning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, xotirjamlikni ta'minlaydi, stressni yo'qotib, uyqu sifatini yaxshilaydi.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, kuniga kamida 4-5 kilometr masofani velosipedda bosib o'tgan inson sog'lig'idan kam shikoyat qiladi. Chunki bunday jismoniy faollik qon aylanishini yaxshilab, organizmni kislorod bilan to'yintiradi, jismoniy va ruhiy kuch-quvvat bag'ishlaydi.

Demak, bugun velosipedda yurish oddiy harakat emas, balki sog'lom hayot sari qaratilgan ongli tanlovga aylanmoqda. Ayniqsa, “Velosipedchilar mahallasi”dek hududlari ko'payayotgani jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, harakat – hayot, velosiped esa sog'lom va mazmunli hayotga eltuvchi eng ishonchli vositadir.

Saminjon HUSANOV
(«Xalq so'zi»).

bezagi – shu. Hozirgidek qo'sha-qo'sha avtomobil, suruvlab qoramol, ot, tuya aytilishi esa to'y egasining o'zini ko'rsatishga urinishidan boshqa narsa emas.

Polvonning aytishicha, ko'pkarilardagi sovrinlarning nihoyatda kattaligi undagi halollik mezonlariga ham putur yetkazmoqda. Polvonlar sovrin ilinjida guruh-guruh bo'lib harakat qilishi, yosh yoki yolg'iz polvoniga yo'li bermaslik kabi salbiy illatlar kuzatilyapti. Aksariyat hollarda sovrinni maydondagi eng abjir polvon emas, balki yonida tarafkashlari, qo'llovchilari ko'p bo'lgan polvon yutib ketmoqda.

Ko'pkarini oriyat bahsi, mardlar kurashi deyishadi. Uning asosiy mohiyati ham sovrinning qiymati emas, balki maydondagi halol kurash, haqiqatning g'alaba qozonishi, omad doim mardniki bo'lishidir. Shunday ekan, necha-necha asrlardan buyon davom etib kelayotgan bu qadriyatni o'zimizni ko'rsatish, dabbababozlik vositasiga aylantirib, qadriini yerga urmaylik.

Jahongir BOYMURODOV
(«Xalq so'zi»).

Joriy yildan sport kurashlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti kubogi musobaqalari muntazam o'tkazib boriladi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabog. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; ko'ibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'yozmalar taqriz qilinmaydi va mullifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Nashriyot muharrir G'. Bahromov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.30 Topshirildi – 00.45 1 2 3 4 5 6